

Q. KARIMOVA

# YO‘L HARAKATI XAVFSIZLIGI

1-SINF O‘QUVCHILARI  
UCHUN AMALIY  
MASHG‘ULOTLAR DAFTARI

MAJBURIY  
NUSXA



TOSHKENT-2013

74.200.58 - Uyi xarakati saqarajuv

UO'K: 351.811.122  
: 39.808  
Y-58

Yo'l harakati xavfsizligi: 1-sinf o'quvchilari uchun amaliy mashg'ulotlar daftari/ «Avtohamroh» jurnali; tuzuvchi muallif: Q. Karimova. — Toshkent: Yurist-media markazi, 2013. - 32 b.

ISBN 978-9943-387-87-4

UO'K: 351.811.122  
: 39.808

**Tuzuvchi muallif:**

Qumrixon KARIMOVA, «Avtohamroh» jurnali Bosh muharriri,  
filologiya fanlari nomzodi

**Taqrizchi:**


Xayrullo MAMATOV, yuridik fanlar nomzodi, dotsent

Ushbu nashrga doir barcha huquqlar himoya qilingan, suratlar va sharhlar «Avtohamroh» tahririyatiga tegishlidir.

«Avtohamroh» jurnali tahririyati rozilgisiz, kitobni o'zga usulda chop etish va ko'paytirish taqiqlanadi.

ISBN 978-9943-387-87-4

© «Yurist-media markazi» nashriyoti, 2013 yil  
© «Avtohamroh» jurnali



NO 42246  
Og!

## Mening yosh do'stim!

Bu Sizning mashg'ulot o'tkazishga mo'ljallangan daftar-kitobchangizdir. Undagi topshiriqlarni bajaring: chizing, so'zlarni toping, bo'yang, rasmlarni ko'ring va Siz, albatta, ko'cha va yo'llarda qanday xavfsiz va to'g'ri yurishni bilib olasiz.

Sizga omad tilaymiz!






# 1-MASHG'ULOT

## MAKTAB VA UYGA YO'L

### 1-Topshiriq\*

Rasmga qarang va nimalarni ko'rayotganingizni aytib bering. Undan 6 ta xavfli bo'lgan joylarni toping va ularni qizil qalam yoki flomaster bilan belgilang. Bola-ning maktabgacha bo'lgan yo'lini chizing. Unga xavfli joylarni aylanib o'tish va unchalik xavfli bo'lmagan yo'lni topishda yordam bering.



**Uy vazifasi:** buvangiz, buvingiz, dadangiz, oyingiz, akangiz, opangizga rasmni ko'rsating. Ulardan xavfli joylarni ko'rsatishga yordam berishlarini so'rang.

\* Barcha matndagi topshiriqlarni murrabiy o'qib beradi.


## 2-MASHG‘ULOT

### KIMLAR YO‘LOVCHI, HAYDOVCHI VA PIYODALAR DEB ATALADI? TRANSPORT VOSITASI NIMA?

#### 1-Topshiriq

Yangi so‘zlarni o‘rganamiz. Rasmga diqqat bilan qarang. Bu yerda kim yo‘lovchi, haydovchi va piyoda ekanligini aniqlang?

Nima uchun Siz bunday o‘yladingiz?






## 2-Topshiriq



Rassom qayin, chinor va archaning rasmini chizdi. Ularning hammasi bir soʻz bilan aytganda – daraxtlar deb ataladi.



Choynak, skovorodka va kastyulkalar bir soʻz bilan qanday ataladi? 6 harfdan iborat bu soʻzni toping.











Endi diqqat bilan qarang. Bular yengil avtomobil, tramvay, avtobus, yuk avtomobillardir. Bir soʻz bilan ularni transport vositasi deb atash mumkin. Ayting, yana qanday transport vositalarini bilasiz?



### 3-Topshiriq

Ayting-chi, rassom qanday transport vositalarining rasmini chizgan? Rasmda nimalarni ko'rayapsiz, aytib bering.





## 4-Topshiriq

Transport vositalariga kiruvchi rasmlarni toping.





Endi qizil qalam (flomaster) bilan yo‘l transportlari rasmini, ko‘k bilan – havo transportlarini, yashil bilan esa – suv transportlarini belgilang.



## 5-Topshiriq


O'ng va chap tarafdagi bir xil transport vositasi tur-  
larini har xil rangdagi chiziqlar bilan birlashtiring.



## 6-Topshiriq

Agarda Siz har bir chiziqning oxirini topsangiz, amakingiz, bolakay, buvangiz, buvingiz, xolangizning qaysi transportda ketayotganligini bilib olasiz.

Topgan soningizni o'ngdagi dumaloq ichiga yozing.





### 3-MASHG'ULOT

## KO'CHA VA YO'LLARDA QANDAY XAVF-XATARLAR BOR?

### 1-Topshiriq

Rasmga qarang.


O'g'il bolaning o'ylashicha, shunday harakat qilish mumkin. Siz qanday o'ylaysiz? Uning xatti-harakatlari to'g'ri bo'lsa kataklarga (+) va noto'g'ri bo'lsa (-) belgisini qo'ying.

Rasmlarga qarab hikoya tuzing.





Bolakay hovlida o'ynayapti.






## 2-Topshiriq



Diqqat bilan qarang, qizcha to'g'ri harakatlanyap-timi yoki noto'g'ri?

Agar to'g'ri deb o'ylasangiz kataklarga (+) belgisini va noto'g'ri deb o'ylasangiz (-) belgisini qo'ying.

Rasmlarga qarab hikoya tuzing.







Qizaloq hovlida velosiped uchmoqda.


Uy vazifasi: Opangiz, akangiz, buvangiz, buvingiz, dadangiz, oyingizga rasmlarni ko'rsating va nima uchun bolakay va qizcha bunday qilmasliklari kerakligini aytib bering.



## 4-MASHG'ULOT

### SVETOFOR

Svetoforning yorug'lik ishoralari nimalarni anglatishini eslab qoling:




qizil – harakatni taqiqlaydi;

sariq – harakatni taqiqlaydi va ishoralarning almashishidan ogohlantiradi;

yashil – harakatga ruxsat etadi.



#### 1-Topshiriq

Transport haydovchilari va yo'lovchilar uchun mo'ljallangan svetoforlar orasidagi farqni toping.



## 2-Topshiriq

Svetoforning yorug'lik ishoralarini to'g'ri bo'yang va ularning ahamiyatini tushuntiring.






## 5-MASHG‘ULOT

### YO‘L YOQASI, PIYODALAR YO‘LKASI, YO‘LKALARDA HARAKATLANISH QOIDALARI


Yangi so‘zlarni o‘rganamiz. Rasmlarga qarang.



Bu yo‘lka (trotuar) - u yo‘naltirgich bilan ko‘rsatilgan.




Mana piyodalar yo‘lkasi.



Bu esa - yo‘l yoqasi.

## 1-Topshiriq


Rasmga qarang: bolalar yo'lining o'ng tomonidagi trotuardan ketmoqdalar. Mashinalar esa qaysi yo'ldan harakatlanmoqda?






## 2-Topshiriq

Siz nima deb o'ylaysiz, rasmda qanday xavf-xatarlar tasvirlangan?




Nima uchun bolakaylar qo'rqib ketishdi?



Bu joyda qanday voqea sodir bo'ldi?

### 3-Topshiriq

Rasmda nechta buyum yashiringan va ular qaysilar ekanligini aniqlang. Ularni aytib bering va rangli qalam yoki flomaster bilan belgilang.






## 6-MASHG'ULOT

### YO'LNING QATNOV QISMI NIMA DEB ATALADI?

Rasmdan yo'lning qatnov qismi va yo'lka (trotuar) - ni ko'rsating. Yo'l to'g'risida nimalarni bilib olganingizni aytib bering.



## 1-Topshiriq

Bola yo‘ldan o‘tayotganda qo‘lqopini tushirib qo‘ydi. O‘ylab ko‘ring, endi nima qilishi kerak?





# 7-MASHG'ULOT


## PIYODALAR YO'LKASI

### 1-Topshiriq


Piyodalar yo'lkasi deb belgilangan bu jonivorni kontur bilan chizing va uni qisqa oq chiziqlar bilan bo'yang.



Piyodalar o'tish joyi




Piyodalarning yer ostidan o'tish joyi



Piyodalarning yer ustidan o'tish joyi


Agar o'ziga yaqin bo'lgan joyda piyodalar o'tish yo'lkasi mavjud bo'lmasa, yo'lni qayerdan kesib o'tish mumkin?

**Shuni yodda saqlang:** Har ikki tomon ham yaxshi ko'rinuvchi, mashinalar va yo'lning to'siqlari yo'q joydan to'g'riga harakatlanib, atrofqa qarash, chapga, o'ngga va yana bir marta chapga qarash, o'rta kelganda esa o'ngga qarab, mashinalar yo'qligiga ishonch hosil qilgandan so'ng, yo'lni kesib o'tish kerak.



## 1-Topshiriq


**Qarang:** bola yo‘lni xavfli holda va noto‘g‘ri kesib o‘tmoqda. Siz qanday o‘ylaysiz, nima uchun yo‘lni ko‘ndalang kesib o‘tib bo‘lmaydi? Aslida qanday o‘tish kerak?



Bolaning yo‘lni to‘g‘ri kesib o‘ish yo‘lini yo‘naltirgich orqali chizib ko‘rsating va yo‘lda qanday qilib xavfsiz yurish mumkinligini aytib bering.




**Uy vazifasi:** bu topshiriqni oyingiz va dadangizga ko'rsating hamda ulardan yo'lni qanday kesib o'tish kerakligi haqidagi quyidagi matnlarni o'qib berishlarini so'rang.



Kesib o'tish yo'liga yaqinlashayotganda biroz to'xtang.

Atrofga qarang, mashinalar yo'qligiga yoki ularning uzoqdaligiga ishonch hosil qiling. Xuddi bolakay va qizchadek yana bir marta chapga qarang va yo'lni kesib o'ting.



Yo'lni kesib o'tish o'rtasiga borganda xuddi bolakay va qizchadek yana bir marta o'ngga qarang. Yonatrofga boqing. Agarda mashina yo'q bo'lsa, yo'l o'rtasida to'xtamasdan yo'lning oxiriga qadar kesib o'ting. Agarda bo'lsa, to'xtang va mashinani o'tkazib yuboring.

## 8-MASHG‘ULOT

### YO‘L BELGILARI NIMANI ANGLATADI?

Yo‘l belgilariga diqqat bilan qarang. Ularning farqini toping.

Eslab qoling – bu yo‘l belgilari piyodalar uchun.



Piyodalar  
yo‘lkasi



Piyodalar  
harakatlanishi  
taqiqlanadi



Piyodalar  
o‘tish joyi



Piyodalarning  
yer ostidan  
o‘tish joyi



Piyodalarning  
yer ustidan  
o‘tish joyi

### 1-Topshiriq

31-betni oching va «Piyodalar yo‘lkasi» yo‘l belgisini chizing va bo‘yang.

### 2-Topshiriq

Quyida berilgan ikkita yo‘l belgisiga qarang. Ular bir xilda nomlanadi: «Piyodalar o‘tish joyi», lekin ulardan biri haydovchilar uchun, boshqasi – piyodalar uchun. Ular nimasi bilan farqlanadi va nimani bildiradi, tushuntiring. Agarda haydovchilar uchun «Piyodalar o‘tish joyi» belgisi qo‘yilgan bo‘lsa, yo‘lni kesib o‘tish mumkinmi?



Piyodalar o‘tish joyi  
(haydovchilar uchun belgi)



Piyodalar o‘tish joyi (piyodalar  
uchun belgi)



### 3-Topshiriq

Servis yo‘l belgilari rasmlariga diqqat bilan qarang.



Siz nima deb o‘ylaysiz, ular nimalarni anglatadi?


### 4-Topshiriq

«Bolalar» yo‘l belgisiga qarang va u nimani anglatishini tushuntiring. Agarda bu belgi o‘rnatilgan bo‘lsa, yo‘lni kesib o‘tish mumkinmi?




Bolalar

Endi «Piyodalar o‘tish joyi» yo‘l belgisini katakka chizing, uni bo‘yang va eslab qoling, bu yo‘l belgisi piyodalar o‘tish joyi, shu bilan birga bolalar o‘tish yo‘lini bildiradi.



## 5-Topshiriq


Rassom qaysi yo‘l belgisini chizishni unutganligini toping? Uni chizing, bo‘yang va nimani anglatishini tushuntiring.





## 6-Topshiriq

Ko'chada o'zlarini xavf-xatarga qo'yayotgan uchta piyodani toping. Ular nimani noto'g'ri bajarayaptilar va ular kimlar? Kimlar yo'ldan to'g'ri o'tmoqda, aytib bering?



## 8-MASHG'ULOT

### MEN – PIYODAMAN

Uy vazifasi: buvangiz, buvingiz, dadangiz yoki oyingizdan bu yerda nima yozilganligini o'qib berishlarini so'rang.

### YO'LDAN O'TISH QOIDASI

1.Yo'ldan mashinalar yo'qligida, faqat svetoforning yashil chirog'i yonganda o'tish kerak.

2.Yo'lni piyodalar yo'lkasidan kesib o'tish kerak.

3.Agarda yaqin atrofda piyodalar yo'lkasi va svetofor bo'lmasa, kattalar ruxsati bilan mashinalar bo'lmagan, ikkala tomon ham yaxshi ko'rinuvchi, to'siqlar va ajratilgan bo'laklar bo'lmagan joydan yo'l kesib o'tiladi. Yo'lni kesib o'tishda qiyalmasiga emas, faqat to'g'riga va ikkala tomonga qarab, yana bir marta — chapga, o'rtasiga borgach esa — o'ngga qarab, xavf yo'qligiga to'liq ishonch hosil qilgandan so'ng harakatlanish mumkin.





# QAYDLAR UCHUN

**Q.KARIMOVA**

**YO‘L HARAKATI XAVFSIZLIGI**

**1-SINF O‘QUVCHILARI UCHUN  
AMALIY MASHG‘ULOTLAR  
DAFTARI**

Muharrir: Adiba Hamro qizi  
Texnik muharrir: Muhriddin Hamroyev  
Dizayner, sahifalovchi: Eldor Karimov  
Musahhah: Suxrobjon Avvalboyev

Nashriyot litsenziyasi: AI № 221, 16.11.12.  
Bosishga ruxsat etildi: 06.05.2013 yil.  
Shartli bosma tabog‘i: 2,0. Nashr tabog‘i: 1,2.  
Bichimi: 84x108 <sup>1</sup>/<sub>16</sub>. Respect garniturasida. Ofset bosma.  
Adadi: 3000.  
22-12 — buyurtma.  
Bahosi shartnoma asosida.

Nashriyot manzili:  
«Yurist-media markazi» nashriyoti,  
Toshkent shahri, Otchopar ko‘chasi, 82-uy.  
Tel.: 230-04-74, (+99894) 181-27-80.  
E-mail: yurist\_media@mail.ru

Bosmaxona manzili:  
Toshkent sh., Kichik Xalqa yuli  
MChJ «Exclusive print»  
bosmaxonasida chop etildi.  
Bosishga ruxsat etildi: 27.06.13 y.  
Adadi: 3000 nusxa. Buyurtma № 180